



# TURKIY XALQLAR ADABIYOTI: ADABIY ALOQALAR, ADABIY TA'SIR VA TARJIMA

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIIY-NAZARIY  
ANJUMAN MAQOLALAR TO'PLAMI

# TÜRK XALQLARININ ƏDƏBİYYATI: ƏDƏBİ ƏLAQƏ, ƏDƏBİ TƏSİR VƏ TƏRCÜMƏ

BEYNƏLXALQ ELMI-NƏZƏRI  
KONFRANS MƏQALƏLƏR TOPLUSU





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI,  
INNOVATSION RIVOJLANISH VAZIRLIGI  
QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI,  
OZARBOYJON MILLIY BILIMLAR AKADEMIYASI  
NIZOMIY GANJAVIY NOMIDAGI ADABIYOT INSTITUTI,  
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI O‘ZBEK  
TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI,  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI DAVLAT ADABIYOT MUZEYI,  
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

**“TURKIY XALQLAR ADABIYOTI:  
ADABIY ALOQALAR, ADABIY  
TA‘SIR VA TARJIMA”**

**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman**

**MATERIALLARI**

**Toshkent-2022**

Сиявуш попадает в чуждую ему среду. Во дворце его ждут гнев беспощадного отца и происки неистовой мачехи Судабы.

Представленный обзор литературных взаимосвязей творчества Гусейна Джавида с узбекской литературой доказывает, что наследие азербайджанского драматурга как неотъемлемая часть тюркской культуры представляет особый интерес для узбекских читателей и его изучение способно внести серьезный вклад в исследования узбекских литературных взаимосвязей, а также истории узбекской литературы.

#### **СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:**

1. [http://www.kavkazoved.info/news/2015/03/29/modernizacia-v-azerbajdzhan e-i-na-severnom-kavkaze-v-konce-xi x-nachale-xx-v.html](http://www.kavkazoved.info/news/2015/03/29/modernizacia-v-azerbajdzhan-e-i-na-severnom-kavkaze-v-konce-xi-x-nachale-xx-v.html)
2. Jovid H. Saylangan asarlar/Pesalar/H.Jovid. – T.: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2018. – 392 b.
3. Алиев С. Литературные связи и узбекская драматургия (первая треть XX века). – Т., 1975 – 156 с.
4. Чўлпон А. Асарлар 4 жилдлик. 2 жилд Роман. Хикоялар. – Т.: «Akademnashr». – 376 б.

#### **ALISHER NAVOIY ASARLARIGA NIZOMIY IJODINING TA’SIRI**

**Iroda ISHONXANOVA**

Alisher Navoiy nomidagi

Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti

o’qituvchisi, [ishonxanova74@bk.ru](mailto:ishonxanova74@bk.ru)

#### **Annotasiya**

Alisher Navoiy “Xamsa”si va boshqa asarlarida buyuk Ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviyning ta’siri seziladi. Navoiy Nizomiy an’analarining davomchisi sifatida adabiyot tarixida katta qimmatga ega bo’lgan asarlarni yozib qoldirgan. Ularni tadqiq qilish va kelajak avlodlarga etkazish bugungi adabiyotshunos olimlarning muqaddas burchidir.

**Kalit so’zlar:** “Xamsa”, an’ana, doston, hikoyat, hikmatli so’z, jadval

#### **Аннотация**

В “Хамсе” и других произведениях Алишера Навои чувствуется влияние великого азербайджанского поэта Низами Гянджеви. Навои, как последователь традиции Низами, написал произведения, представляющие большую ценность в истории литературы. Их исследование и передача будущим поколениям - священный долг современных литературоведов.

**Ключевые слова:** “Хамса”, традиция, эпос, притча, слово мудрости, таблица

### **Annotation**

In Alisher Navoi's "Hamsa" and other works, the influence of the great Azerbaijani poet Nizami Ganjavi is felt. Navoi, as a follower of the Nizami tradition, has written works that are of great value in the history of literature. Their research and transmission to future generations is the sacred duty of today's literary scholars.

**Keywords:** “Hamsa”, tradition, epic, wisdom, word of wisdom, table

Azaldan turkiy xalqlar adabiyoti bir-biri bilan mushtarak holda rivojlangan, umumiy an’analarga ega bo’lgan. Ana shunday an’analardan biri “Xamsa” yaratish an’anasi. “Xamsa” SHarq xalqlari orasida juda mashhur bo’lib, bunday asar yozgan adib nomi sharaf bilan tilga olingan. “Xamsa” yaratishning o’ziga xos maxsus shartlari mavjud bo’lgan va ular quyidagilardan iborat:

1. Beshta doston dan tashkil topishi;
2. Birinchi doston pand-nasihati ko’rinishidagi ta’limiy-axloqiy, falsafiy doston bo’lishi;
3. Ikkinchi doston Xusrav va SHirin sevgisiga bag’ishlanishi;
4. Uchinchi doston Layli va Majnun muhabbatini mavzu qilib olishi;
5. To’rtinchi doston podshoh Bahrom haqida hikoya qilishi;
6. Beshinchi doston shoh Iskandar to’g’risida yozilishi kerak.

Alisher Navoiy o’zidan oldin “Xamsa” yaratgan ustozlari izidan borib, ular an’analarini davom ettirgan holda ijod qilgan. Biz bu jarayonni o’quvchilarga quyidagi jadval asosida ko’rsatishimiz mumkin:

<b>Nizomiy Ganjaviy</b>	<b>Xusrav Dehlaviy</b>	<b>Abdurahmon Jomiy</b>	<b>Alisher Navoiy</b>
“Maxzan ul-asror”	“Matla’ ul-anvor”	“Tuhfat ul-ahror”	“Hayrat ul-abror”
“Xusrav va Shirin”	“Shirin va Xusrav”	“Sibhat ul-abror”	“Farhod va Shirin”
“Layli va Majnun”	“Majnun va Layli”	“Layli va Majnun”	“Layli va Majnun”
“Haft paykar”	“Hasht behisht”	“Yusuf va Zulayho”	“Sab’ ai sayyor”
“Iskandarnoma”	“Oyinayi Iskandariy”	“Xiradnomai Iskandariy”	“Saddi Iskandariy”

Shu o’rinda Abdurahmon Jomiy besh dostonni 1485 yilda yozib tugallab, keyin “Silsilat uz-zahab” va “Salomon va Absol” asarlarini qo’shib, “Xamsa”sini etti dostonga etkazgani hamda “Haft avrang”(“Etti taxt”) deb atagani barchamizga

ma'lumligini aytib o'tgan holda, faqat beshlikka mos tushadiganlarini tanlab keltirganimizni ta'kidlamoqchimiz.

Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviyni ustoz deb bilib, uning izidan borib, "Xamsa" yaratgan ekan, ustoz-shogirdlik an'anasiga qay darajada amal qilganligi "Xusrav va SHirin" hamda "Farhod va SHirin" dostoni qiyoslangan jadvalda yaqqol ko'rinadi.

<b>Xususiyatlar</b>	<b>"Xusrav va SHirin"</b>	<b>"Farhod va SHirin"</b>
<b>Hajmi</b>	6139 baytdan 6500 baytgacha	5782 bayt
<b>Yozilgan vaqti</b>	1181 yil	1484 yil
<b>Asarning boshlanishi</b>	Madoyin hukmdori Xurmuz xonadonida Xusrav Parvizning tug'ilishi tufayli uyushtirilgan shodiyona tasviri bilan boshlanadi	Ovozasi olamni tutgan Chin xoqonining farzandsizligi va bundan uning so'ngsiz iztiroblarga tushganligi tasviri bilan boshlanadi
<b>Bosh qahramonlar</b>	Xusrav va Shirin	Farhod va Shirin
	Xusrav favqulodda kuch va g'ayrat, aql-idrok egasi bo'lib ulg'ayadi. Lekin shu bilan birga uning tabiatida engiltaklik, beqarorlik ham mavjud edi	Farhod favqulodda iste'dod, tug'ma qobiliyat egasi edi. U ta'limning dastlabki uch oyida butkul savod chiqardi, bir yilda Qur'oni karimni yod oldi
<b>Xusrav va Farhod munozarasi</b>	Burun so'rdi: ne erlik san tiyu san? Ayittikim, oshiqlar shahridin man.  Ayitti: anda ne san(o)at qilurlar? Ayitti: jon sotib, qazg'u olurlar.  Ayitti: jonni sotmoqliq xato ul, Ayitti: ishq yo'linda ham ravo ul.  Ayitti: kertimu oshiq erursan? Ayitti: bor ko'zung oxir	Dedi:"Qaydinsen, ey majnuni gumrah?!" Dedi:"Majnun vatandin qayda ogah?"  Dedi:"Nedur sanga olamda pesha?" Dedi:"Ishq ichra majnunliq hamesha".  Dedi:"Bu ishqdin o'lmas kasb ro'zi!" Dedi:"Kasb o'lsa, basdur ishq so'zi".  Dedikim:"Ishq o'tiding de fasona!"

	<p>ko'rursan.</p> <p>Ayitti: ne qadar sevdung san oni? Ayitti: so'zga sig'maz hech bayoni.</p> <p>Ayitti: ko'rdungmi (ul) kuntek jamolin? Ayittikim: bali, ko'rdum xayolin.</p> <p>Ayitti: mihridin bo'lg'aymusan pok? Ayittikim: magar bo'lsam o'lub xok.</p> <p>Ayitti: gar yo'luqsang ko'rsa seni? Ayitti: ko'zga surgim tuproqini.</p> <p>Ayitti: gar ko'zungni xasta qilsa? Ayitti: roziman tek ko'zga ilsa.</p> <p>Ayitti: gar azin er sunsa ilkin? Ayitti: tilgaman tosh birla boshin.</p>	<p>Dedi:"Kuymay kishi topmas nishona".</p> <p>Dedikim:"Kuymagingni ayla ma'lum!"</p> <p>Dedi:"Andin erur joh ahli mahrum".</p> <p>Dedikim:"Qay chog'din o'ldung ishq aro mast?"</p> <p>Dedi:"Ruh ermas erdi tang'a payvast".</p> <p>Dedi:"Bu ishqdin inkor qilg'il!"</p> <p>Dedi:"Bu so'zdin istig'for qilg'il!"</p> <p>Dedi:"Oshiqqa ne ish ko'p qilur zo'r?"</p> <p>Dedi:"Furqat kuni ishq balosho'r".</p> <p>Dedi:"Ishq ahlining nedur hayoti?"</p> <p>Dedi:"Vasl ichra jonon iltifoti".</p> <p>Dedikim:"Dilbaringning de sifotin!"</p> <p>Dedi:"Til g'ayratidin tutmon otin!"</p>
--	---	---

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, Alisher Navoiy ijodida, xususan "Xamsa" dostonlarida an'anaviylik va ustoz-shogird munosabatlari aks etgan o'rinlari talaygina. Bu o'rinlar mumtoz adabiyot namunalarini betakror o'lmas merosga aylantirgani shubhasiz. Xususan, ayrim hikoyatlar misolida ham buni ko'ramiz. Nizomiyning "Maxzan ul-asror" dostonida "G'isht quyuvchi chol hikoyati" bor. SHom viloyatida yashovchi bir keksa kishi g'isht quyish bilan kun kechirar ekan. Bir yosh yigit unga o'z ishini yoshlarga topshirib, keksalar safiga kirishni maslahat beribdi. SHunda chol birovlardan yordam kutgandan ko'ra, o'zi mehnat qilib topganini afzal bilishini aytadi. Bundan yigitning ham ko'zlariga yosh

keladi. “Hayrat ul-abror” dostonida esa mashhur “Hotami Toy hikoyati” bor. Uning qahramoni ham birovning himmatidan o’zining beminnat ishlab topganini afzal deb hisoblaydi. Halol mehnat bilan kun kechiruvchi timsollarning nutqida ham bir-biriga o’xshashlikni ko’ramiz. Masalan, Nizomiyning timsoli

O’zga himmatiga cho’zmayin qo’lim,  
Qo’l kuchidan rizqim topmog’lik yo’lim.  
O’z rizqim mehnati kelmas hech malol,  
Faqat mehnat ila topgan non halol[6, 119],

deya e’tiroz bildirsa, Alisher Navoiyning qahramoni Hotami Toyga noroziligini shunday bildiradi:

Sen dog’i chekkil bu tikan mehnatin,  
Tortmag’il Hotami Toy minnatin.  
Bir diram olmoq chekibon dast ranj,  
YAxshiroq andinki birov bersa ganj[2, 153].

Nizomiy va Navoiyning ko’pchiligimiz uchun yod bo’lib ketgan hikmatli so’zlarida ham ko’plab uyg’unlikni ko’rishimiz mumkin:

#### **Nizomiy**

Kam gapiru tanla misli dur,  
Oz-ozdan ham jahon liq to’lur.  
Kimki o’rganishni uyat, or  
demas,  
Suvdan dur topadi, la’l, olmos  
  
Xalq xizmatiga yarashga intil,  
Xulqing bila bu jahonni soz qil.  
  
O’zgalar aybiga tetik nazar sol,  
O’z aybing ko’rgandek, undan  
ibrat ol.

#### **Alisher Navoiy**

Sihhat tilasang, ko’p ema,  
Izzat tilasang, ko’p dema!  
Bilmaganni so’rab, o’rgangan  
olim,  
Orlanib so’ramagan o’ziga  
zolim.  
Odami ersang, demagil odami,  
Onikim, yo’q xalq g’amidin  
g’ami.  
Kishi aybing desa, dam  
urmag’il, ul erur ko’zgu,  
CHu ko’zgu tiyra bo’ldi, o’zga  
aybing zohir aylarmu?

Fikrlarimizga xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, Alisher Navoiy Nizomiy Ganjaviyni o’ziga ma’naviy ustoz deb hisoblab, uning adabiy an’analarini davom ettirgan. Bu yo’lda betakror asarlar yaratgan. Turkiy xalqlarning adabiyoti o’zaro mushtarak va uyg’un ekanligini o’z dostonlari, g’azallari hamda boshqa janrdagi ijod namunalari bilan isbotlab bergan. Biz Alisher Navoiy asarlari orqali Nizomiy Ganjaviy ijodining buyukligi, go’zal badiiyati, asrlar aro yashab kelishi sirini bilib olamiz va betakrorligiga tahsinlar aytamiz. Bunday ijod namunalari kelgusi avlodlarni ham o’z qudrati bilan hayratga solishda davom etaveradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Алишер Навоий. Фарҳод ва Ширин. МАТ. 20 жилдлик, 8-жилд. – Т.: Фан, 1991
2. Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. МАТ. 20 жилдлик, 7-жилд. – Т.: Фан, 1991
3. Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Т.: Ўзбекистон, 2013
4. Б.Тўхлиев ва бошқалар. Алишер Навоий ҳаёти ва ижоди. Альбом.– Т.: Баёз, 2013
5. Қ.Йўлдошев ва бошқалар. Адабиёт. Дарслик. Умумий ўрта таълим мактабларининг 9-синф ўқувчилари учун. – Т.: Ўзбекистон, 2019
6. Низомий шеърятдан. Шоислом Шомухамедов таржимаси. – Т., 1983
7. Ш.Сирожиддинов ва бошқалар. Навоийшунослик. Дарслик.– Т.: Тамаддун, 2019
8. <https://www.ziyouz.com/>

## **DIDAKTIK YO‘NALISHDA BITILGAN LIRIK ASARLARNING QIYOSIY TADQIQI**

**(Abdulla Avloniy va Aliakbar Sobir she‘riyati misolida)**

**Oybek BARZIYEV,  
FarDU o‘qituvchisi,  
filologiya fanlari bo‘yicha  
falsafa doktori, PhD  
(O‘zbekiton)**

### **Annotasiya**

Maqolada milliy uyg‘onish davri o‘zbek va ozarbayjon adabiyotida didaktik yo‘nalishda bitilgan she‘rlar tahlil doirasiga tortilgan. Unda Abdulla Avloniy va ozarbayjon shoiri Aliakbar Sobirning didaktik g‘oyalari bilan bog‘liq dunyoqarashi, poetik merosidagi an‘anaviy mushtarak jihatlar yoritilgan.

**Kalit so‘z va iboralar:** didaktika, munozara, ijodiy ta’sirlanish, savol-javob usuli, ilm o‘rganish va hunar egallash, Turkiston hayoti, ota va ona, o‘g‘il tarbiyasi, qadimchilar va jadidlar.

### **Аннотация**

В статье в сфере анализа включены стихотворения, написанные в дидактическом направлении в поэзии периода национального возрождения узбекской и азербайджанской литературы. В ней освещаются мировоззрение Абдуллы Авлони и азербайджанского поэта Алиакбара Сабира, связанные с дидактическими идеями, традиционные общие стороны их поэтического наследия.



## MUNDARIJA

Baxrom Ashrafxonov. O‘zbekiston va Ozarbayjon munosabatlarida yangi tarixiy bosqich.....	3
İsa Həbibbəyli. Azərbaycan Respublikasının Prezidenti İlham Əliyevin Özbəkistan səfəri və humanitar elmlər sahəsində əlaqələrin inkişaf etdirilməsinin yeni mərhələsi.....	5
Bahrom Abdullayev. Adabiyot – do‘stlik elchisi.....	10

## TURKIY XALQLAR FOLKLORIDAGI MUSHTARAKLIKLAR

Jabbor Eshonkulov. Dede Korkut kitabı’nın badiiy yorumu.....	12
Yeganə İsmayılova. «Dədə Qorqud» dastanları və Müasir Azərbaycan ədəbiyyatı probleminin tədqiqində «Folklor və yazılı ədəbiyyat» münasibətlər modeli.....	19
Shomirza Turdimov. Shahodatxon Imomnazarova. Navro‘z tarixi va talqinining qadim yozma manbalar hamda folklor namunalaridagi tahlili.....	27
Hacıyeva Könül. “Əşrəf bəy və Zöhrə xan” dastanı haqqında.....	32
Xanım Mirzəyeva. Özbək-Azərbaycan atalar sözlərində ümumi cəhətlər.....	37
Doç.Dr Terane Heşimova. Azərbaycan ve Özbək türklərinə ait destanlarda kadın.....	42
Munis Jo‘rayeva. Turkiy xalqlar topishmoqlari tarixining mushtarakligi.....	53
Nasiba Sobirova. Qo‘rqut ota va oshiq Oydin pır baxshılarınq homıysı.....	58
Ulug‘bek Sattorov. Xalq toponimikası va uning rivoyat va afsonalar bilan aloqadorlıqı.....	64
Zilola Eshanova. Analitik folklorizmlarning g‘oyaviy-estetik vazifalari.....	68
Dilafro‘z Qalandarova. Turkiy xalqlar folkloridagi mushtarakliklar (Karl Rayxl tadqiqotlari misolida).....	75
Venera Ataxanova. Qadimiy eposda epik matn badiiyati.....	78
Muqaddas Karimova. O‘zbekistonda yashovchi turkiy xalqlar folklorining milliy bayramlardagi o‘rni va ijtimoiy-ma‘naviy ahamiyati.....	81
Feruzə Tillaboyeva. Rus va o‘zbeklarning ayrim o‘xshash topishmoqlari.....	90
Davronbek Oripov. “Kitabi Dadam Qo‘rqud” – qahramonlik, mardlik va jasorat eposi!.....	94
Norbibi Ro‘zimurodova. Folklorning badiiy adabiyotdagi o‘rni.....	97

## TURKIY XALQLAR ADABIYOTI: ADABIY TA‘SIR VA TIPOLOGIYA

Yashar Qosim. Asrning ovozi va adabiy yangilanish boskichlari. Əsrin səsi və ədəbi zirvəsi (Ədəbi-nəzəri və müqayisəli-tipoloji paralellər).....	100
--	-----

Ramiz Asqar. Özbək ədəbiyyatı Ramiz Əskərin tərcüməsində Azərbaycan dilində.....	108
Dilmurod Quronov. Fuzuliy Cho‘lpon nigohida.....	111
Nurboy Jabborov. Ahmad Yassaviy va Yunus Emro hikmatlarida adabiy ta’sir va izdoshlik.....	118
Nadir Məmmədli. Azərbaycanda Özbək dilinə həsr olunmuş tədqiqatlar və perspektivlər.....	125
İsmayıl Məmmədli. “Azərbaycanca-Özbəkçə Özbəkçə-Azərbaycanca lüğət” türkologiyada hadisədir.....	130
Badirxan Ahmadli. The poetic world of Sirajaddin Said.....	134
Akbar Sabirdinov. Oybek she’riyatida Fuzuliy an’analari.....	141
Adhambek Alimbekov. O’zbekistonda turk adabiyotini o’rganish tarixidan.....	145
Salidə Şərifova. Rəsul Rza: keçmişdən müasirliyə, qulluqdan vətəndaşlığa, Şimaldan Cənuba, millilikdən ümumbəşərliyə körpu.....	151
Habibullo Jo‘rayev. Javoxirbek Sayidolimov. Din va dunyo: g‘oya va badiiyat..	160
Dilshod G‘ayipov. Fuzuliy va Ogahiy she’riyatıdagı ijodiy ta’sir hamda o‘zıga xoslik masalaları bo‘yicha ba’zi mulohazalar.....	164
Seyfəddin Altayli. Ahmet Yesevî’den İzzeddin Hasanoğlu ve Hacı Bektaş Veli’ye.....	169
Gulnoz Sattorova. O‘zbek va jahon hikoyachiligi: adabiy ta’sir va o‘zıga xoslik.....	180
Barno Abdurahmonova. Qadimgi turkiy adabiyot va Zavqiy.....	185
Bekposhsha Rahimova. Badiiy adabiyotda an’ana va vorisiylik hodisasi.....	190
Farida Karimova. Fuzuliy forsiy devoni debochasida navoiyona uslub qirralari..	194
Islombek Mannopov. Xoja Ahmad Yassaviy va turkiy xalqlar adabiyoti.....	200
Nəzakət İsmayılova. Həbib Sədulla.....	206
Salomat Matkarimova. Alisher Navoiy va Xorazm shoirlari ijodida «so‘z».....	211
Zuhra Mamadaliyeva. Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy pandnomalarida bosh qahramon masalasi (“Mahzan ul-asror” va “Hayrat ul-abror” dostonlari misolida).....	216
Manzura Pirnazarova. Turkiy xalqlarning mushtarak shoiri.....	220
Jasurbek Mahmudov. Pahlavon Mahmud va Nizomiy Ganjaviy.....	225
Aytən Qurbanova. Başqırdistan ədəbiyyatında repressiya dalğası.....	231
Aygün Bağırılı. Sovet dövrü Azərbaycan yazarlarının epistoliar əsərlərində Türkiyə.....	237
Mehman Həsənli. orxan pamukun “bəyaz qala” romanında şərq-qərb dilemması.....	247
Botir Jafarov. XIV asr turkiy lug’atchilik an’analaridagi mushtaraklik.....	251

Iqbol Mirzo. Turkiylarning oltin kitobi.....	256
Sobira Jo'raeva. G'azalda ma'no va mahorat masalalari.....	261
Töhfhə Talibova. Səməd Vurğun və Musa Cəlil.....	266
Turan Teymurov. Yunus Əmrə və Şəkərimin “Leyli və Məcnun” əsərində eşq...271	
Namiyə Xəlilova. Nizami Gəncəvi irsinin bibliografik aspektdən təqdimatı.....	277
Kishin Xajiboyev. “Asrga tatigulik kun” romonida davr va inson muammosi....	284
X.Xolmurodov. Sharq adabiyotida Shirin obrazi an'anasi va uning Alisher Navoiy she'riyatidagi takomili.....	291
Малика Адыгезалова. Гусейн Джавид и узбекская литература.....	298
Iroda Ishonxanova. Alisher Navoiy asarlariga Nizomiy ijodining ta'siri.....	302
Oybek Barziyev. Didaktik yo'nalishda bitilgan lirik asarlarning qiyosiy tadqiqi (Abdulla Avloniy va Aliakbar Sobir she'riyati misolida).....	307
Sənubər Səmədova. Ədəbiyyatda milli özünüdərək ideyalarının ictimai-tarixi zəmini və bədii təşəkkülü.....	313
Темирова Нуржамал. Кыргыз жана өзбек элинин дидактикалык чыгармалары жана алардагы таалим-тарбия маселеси.....	320

## **TURKIY XALQLAR ADABIYOTIDA OZARBAYJON ADABIYOTINING TUTGAN O'RNİ.**

Ülkər Nəbiyeva. Torpaq - mifik sakrallığın rəmzidir.....	324
Азизова Фарида «Хадигату-с-суада» Мухаммеда Физули в новой исследовательской парадигме.....	331
Əlizadə Əsgərli. Хялил Рза Улутцркүн özbək ədəbiyyatından çevirmələrinə dair.....	339
Mahirə Quliyeva. Klassik söz sənəti və nəzəri əsasları.....	345
Shahnoza Qahhorova. Fuzuliyning “Layli va Majnun” dostonida fano talqini...350	
Sevinc Ağayeva. Suli Fəqih və Durbəkin yaradıcılığında epik ənənələr.....	356
Nasiba Xaydarova. O'zbekistonning rusiyzabon nasridagi individual-mualliflik konseptlar va imagogik dominantalarning istiqbollari va modifikatsiyasi (V.G.Yan ijod materialı asosida).....	361
Əflatun Baxşəliyev. Nazim Hikmət və Azərbaycan ədəbi mühiti.....	367
Vazufa Kudiyeva. A Li Bey Hüseyinzade mirasına ilişkin belge akışının geliştirilmesi ve bilgi kaynaklarına yansımaları.....	374
Айляль Гейдарова. Символика спектра красок в цветовой гамме чувств как отражение психологизма в произведении.....	383

## **ADABIYOTSHUNOSLIKNING DOLZARB MASALALARI**

Almaz Ülvi Binnətova. “Ötən günlər”i nə üçün yenidən xatırladıq?!.....	395
Ulug'bek Hamdam. O'ljas Sulaymonov ijodiga chizgilar.....	398